



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

MUHAMMAD YUSUF LIRIKASIDA RUHIYAT TASVIRI

Nazarova X. G.

Samarqand davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Sag'diyeva Dilnura G'olibjon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida ruhiyat masalalari yoritilgan, ya'ni g'oyaviy-badiiy mazmunning ehtiros bilan ifodalanishi orqali kitobxon qalbiga chuqur ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shoir she'rlari tahlil qilinib, unda xalq qalbi, milliy g'urur, tarixiy xotira, o'zlikni anglash, ona zamin va inson qadri uyg'un tarzda ekanligi ochib berilgan. Shuningdek, maqolada Muhammad Yusuf lirikasining Erkin Vohidov she'riyati bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, pafos, lirika, xalqona ruh, samimiyat, Vatan, ozodlik, badiiy kechinma.

THE IMAGE OF SPIRIT IN THE LYRICS OF MUHAMMAD YUSUF

Nazarova Kh. G.

Samarkand State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature

Sag'diyeva Dilnura Golibjon kizi
Samarkand State Pedagogical Institute
1st year student of the Department of Uzbek Language and Literature

Abstract

This article sheds light on the issues of spirituality in the work of Muhammad Yusuf, that is, the deep impact on the reader's heart through the passionate expression of



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

ideological and artistic content is analyzed on a scientific basis. The poet's poems are analyzed, revealing that the people's soul, national pride, historical memory, self-awareness, motherland and human dignity are harmoniously combined in them. The article also provides a comparative analysis of Muhammad Yusuf's lyrics with Erkin Vohidov's poetry.

Keywords: spirituality, pathos, lyrics, folk spirit, sincerity, Motherland, freedom, artistic experience.

ОБРАЗ ДУХОВНОСТИ В ЛИРИКЕ МУХАММАДА ЮСУФА

Самаркандский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Назарова Х.Г.

Самаркандский государственный педагогический институт

Студентка 1 курса кафедры узбекского языка и литературы

Сагдиева Дильнура Голибжон кызы

Аннотация

В статье освещаются вопросы духовности в творчестве Мухаммада Юсуфа, то есть глубокое воздействие на сердце читателя посредством страстного выражения идейно-художественного содержания, анализируется на научной основе. Анализируются стихотворения поэта, выявляя гармоничное сочетание в них народной души, национальной гордости, исторической памяти, самосознания, Родины и человеческого достоинства. В статье также проводится сравнительный анализ лирики Мухаммада Юсуфа с поэзией Эркина Вохидова.

Ключевые слова: духовность, пафос, лирика, народный дух, искренность, Родина, свобода, художественное переживание.

Kirish

Ruhyat-bu hayotda yashayotgan jamiki jonzotlarning, insonlarning ichki olamida boʻladigan his-tuygʻular, orzu-armonlari, iztiroblari, shodliklari va shu kabi ruhiy



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

holatlarni sezishidir. Bilamizki, badiiy adabiyotda ruhiyat tushunchasi pafos uslubida qo'llaniladi. Pafos so'zi ruhiyat bilan sinonim sifatida faol ishtirok etadi. Pafos – adabiy asarda badiiy g'oyaning ehtiros bilan g'oyat ta'sirchan, o'quvchini hayratga, larzaga solar darajada ifoda etilishi bo'lib, adib unda o'z nuqtayi nazari va qarashlarini yashirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotida ijod qilar ekan, xalq qalbiga yaqin, eng samimiy ovozlardan biri bo'lib pafosdan keng ko'lamda foydalangan. Yozuvchimiz Oybek ham bekorga "Bizning lirika ham qayg'u, alamga sig'inuvchi, sukunat hayotdan lazzatlanuvchi "on"ni tutishga, egoizmga moyil, kishini uxlatuvchi, elituvchi lirika emas. Bizning lirika hayotning, ulug' davrimizning, kurashning qaynoq tuyg'ularini, toshqinliklarini, yangi turmush go'zalliklarini kuylash va o'quvchiga g'ayrat, zavq, yaratish, ishlash tuyg'ularini bag'ishlovi lozim" degan g'oyalarni ilgari surmagan. [7.196] Shoirning she'rlari o'zbek xalqining dard-u armonlari, orzu- intilishlari, quvonchlari, shu kabi ruhiy kechinmalar va ma'naviy uyg'onishlarini yuksak badiiy ifodada aks ettirgan. Uning lirikasi o'zining sodda ammo ma'noli va sof tasvirlari bilan ko'plab kitobxonlarning qalbidan tezda joy oladi desak zarracha ham mubolag'a bo'lmaydi.

Muhammad Yusuf lirikasidagi she'rlar asosan xalq tilida, xalqning ruhiyati asosida yaratilgan va u insoniyat ruhi bilan bir-biriga bog'liq. Shoir o'z ijodi davomida jamiyatimiz hayotini, og'ir va osonlik bilan erishmagan kunlarini insoniylik qalbi bilan aks ettirgan. Shunday qilib, xalqona ruh deganda oddiy insonlarning hayoti, dunyoqarashi, his tuyg'ulari, turli xil udumlari, orzu-umidlarini aks ettiruvchi va xalq hayot tarziga yaqin bo'lgan ma'naviy hissiyotlari yordamida asar yozilishidir. Uning she'rlarida samimiylilik shunchalik kuchliki, go'yoki o'quvchi sh'rnavis inson o'z yuragidagi fikrlarni o'qigandek bo'ladi. Ayniqsa, "Daryo", "Vatanim", "Qizg'aldoq", "Onamga xat", "Mehr qolur", "Mening Vatanim", "Ey dil", "Onaizor", "Samarqand", "Ko'nglimda bir yor" kabi va undan tashqari yuzlab she'rlarida ruhiyat tasviri ochiq namayon bo'lgan.. Muhammad Yusuf uchun ruhiyat murakkab falsafiy qatlam emas, balki inson yuragidagi sof, sodda, ammo teran ma'noli kechinmalardir.

*Qadim yurtga qaytsin, qadim navolarim,/ Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim,/ Ruhini shod etay desang, xalq bo'l elim.*



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

[*Xalq bo'l elim, 127*]

Kabi bunday satrlar bilan boshlanuvchi “Xalq bo'l elim” nomli she'rida o'z yurti haqida qayg'urayotganini, atrofidagi barcha odamlarning fojialari, og'ir kunlarini, millat bo'lib birlashib yashashini bildirmoqchi bo'lgan. Masalan: “*Qo'rg'oningni bermay desang chingizlarga*” misrasida chingizlar – mustamlakachilar bo'lib, ularga o'z ona Vatanini bermaslikni, ozodlikni saqlash kerakligi haqida fikr bildirgan. Yana bir boshqa misrasida: “*Ulug'bek nom qo'yib ketgan yulduzlarga, yuzim bosib o'tay desang xalq bo'l elim*” keltirilgan va unda tarixiy g'urur, ilm-fan, madaniyat ramzi bo'lib, buyuk ajdodlarimiz bosib o'tgan yo'ldan yurishimizni ta'kidlaydi. Umumiy qilib aytganda, o'z xalqiga murojaat va “o'z yurtining tarixini bilmagan inson, o'zligini bilmaydi” naqliga amal qilgan holda, tarix sahifalarini ham eslab o'tgan. Til, madaniyat, urf-odat, ajdodlar xotirasi, erkinlik – bularning barchasini saqlab qolish uchun “xalq bo'lish” ya'ni birlashish, uyg'onish, o'z milliyligiga sodiq qolish kerakligi haqida so'z ochilgan. Ayniqsa, XXI asr yosh avlodlari uchun bu – ruhiy uyg'onish chaqirig'i desak ham xato qilmagan bo'lamiz. Qo'shimcha qilib aytganda, shoirning “Alyorum qolur” turkumidan joy olgan “O'zbekning ayollari” she'rida ham oddiy so'zlar bilan ifodalangan satrlar mavjud. O'zbek ayollaridagi matonatni, fidoyiligi va mehnatsevarligini madh etgan. Faqatgina bu bilan cheklanib qolmaydi chunki, she'ring birinchi bandida o'zbek onalarining farzand tarbiyasi va uy-ro'zg'or ishlari bila doimiy band bo'lishi, sokin tun vaqtida ham ayollar dam olmasligini, oilasi uchun har doim xizmatda bo'lishi haqida tasvirlanayotganini ko'rishimiz mumkin. She'ring ikkinchi bandida esa, bu ayollarning mehnati oson emasligini, ayol zoti uchun vaqtning qanday mashaqqatli o'tishini, ba'zi munis onalarimiz, opa-singillarimiz hissiyotlari e'tiborsiz va qadsiz bo'lgani ham e'tiborda chetda qoldirilmagan. Ko'rib turganimizdek, ushbu ifodalarda o'zbek ayoli, o'zbek onasining sabr-toqati bizni hayratga soladi.

“She'rdagi davr tushunchasi ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liqlikdagi inson hayoti bilan belgilanadi. She'riyat insoniyat uchun yaratilar ekan, shoir uchun davr miqyosi zamondoshlari hayoti, inson taqdiri bilan xarakterlanadi; insonning bugungi hayoti, tushuncha va tafakkuri bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi”[6.9] deganlaridek. Shoirning ko'plab she'rlarini o'qir ekanmiz, she'rlarda ruhiy kechinmalar, salbiy va ijobiy holatlarni, shu bilan birgalikda oddiy, kunlik



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

hayotiy voqealarni ham tez-tez uchratishimiz mumkin. Muallifning lirikasidagi bir inson hayoti davomidagi turmush voqealari bilan uzviy bog'liqdir. U o'z ijodi davomida ko'plab mavzularda qalam tebratdi. Masalan, eng ko'p uchraydigan Vatan muhabbatiga bo'lgan hislar, ota-ona yodi, mehr-muhabbati, ozru-armonlari, sog'inch kabilar orqali she'riyat dunyosini boyitgan. Bu yerda, ruhiy hislar hayotning in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. "Hayvonot bog'i", "Savol", "Qaldirg'och", "Onajon", "Shoir sevgisi" kabi o'nlab she'rlarda buni aniq ifodalanganini ko'rishimiz mumkin.

Hayvonot bog'ida jayronni ko'rdim,/ Tutqinlikda dili vayronni ko'rdim.

Ko'rdim, quruq shoxda sayrab to'tilar,/ Sirab tovush qayrar to'tilar.

[Saylanma, 177]

Ushbu she'rda shoir hayvonot bog'ida tutqunlikdagi ko'plab hayvolarni majburiyatlar orasida qolgani insonlar erkinligining qadri yo'qolganligining timsoli qilib tasvirlangan. Shunday qilib, bu yerda jayron ozodlik ramzi va keng dalalarda yashaydigan jonivorning tutqunlikda ruhan ezilgani va rang-barang, quvnoq va chiroyli qushlar sun'iy muhitda yashashi, tabiatdagi shodliklardan mahrum bo'lgani she'riy uslubda bayon qilingan. She'rning keyingi satrlarida esa, qafasda saqlangan, lekin aslida qushlarning (yuqorilarga parvoz etadigan samo yulduzlari) qanotlaridan ayrilgani izohlangan va ular uchish imkoniyatiga ega bo'lmasada har doim go'zalikka intiladilar. Burgut she'rdagi g'urur va qudrat timsoli bo'lib, bosh egilishi orqali ruhan erkinlikdan ayrilib, singani ko'rsatilmoqda. Bulbul esa badiiy adabiyotda muhbbat, ilhom timsoli bo'lib kelgan va u ham boshqalar kabi umidsizlikka tushgan obrazdir. Umumiy she'rning g'oyasi shundan iboratki: Erkinsiz yashash – bu ruhiy o'lim, erkinsiz hayotga go'zallik, hurlik arziyas. Eng kuchli mavjudot borki, ozodlikda xor bo'lmaydi, qafasda ruhi o'ladi, balki jismonan ham! Qo'shimcha qilib kiritish mumkinki, Muhammad Yusufning she'rlariga o'xshagan holda boshqa shoirlar ham ruhiy kechinmalar va hayotiy voqealarni bog'lagan holda ko'plab she'rlar yozishgan.

Shoira Zulfiyaning "Uchib ketdi polapon qushi..." she'rida odddiy so'zlar bilan bitilgan va bu o'xshatish orqali farzandning, yosh avlodning ota-onasidan uzoqlashishi tavsiflangan. Shundan so'ng ota-onaning yoki farzandning boshqa



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

mamlakatga pul topish uchun ketishi yoki shu kabi holatlar ularning bir-birlaridan yiroqlashishiga olib keladi va qushlar ham parvoz oldidan joni og‘rishi ya’ni parvoz davomidagi qiyinchiliklari nazarda tutilmoqda. Bu she’rda ham sog‘inch va azoblanish hissi o‘z ifodasini topgan.

Ko‘plab kitobxonlar Muhammad Yusuf va Erkin Vohidov she’rlarini o‘qir ekan, ularni o‘zbek adabiyotidagi ruhiy holatlarini, ichki kechinmalarni ramziy holda ifodalaganini yaqqol sezadi. Ular she’riyatida ruhiyat ramzlari inson qalbinning eng nozik tomonlarini ochib beradi. Har bir obraz, har bir timsol – bu shoirning qalb nidosi, yurak nolasidir. Agar ikkala ijodkorning lirikasini har jihatdan solishtiradigan bo‘lsak, ko‘plab farqli va o‘xshash tomonlarni ko‘rishimiz mumkin. Muhammad Yusuf ijodi asosan, xalqona soddaligi, yurakka yaqinligi bilan aralib turadi. Uning she’rlarida Vatanni – ona, xalqni – oila kabi ezozlaydigan o‘rinlar bisyordir. Shoir hayotiy haqiqatlarni ko‘ngilga sodda, ammo ta’sirchan holda yetkazadi. Keyingi o‘rinda, Erkin Vohidov esa o‘z she’riyatida falsafiy teranlikka urg‘u beradi. U insoniyat, ma’naviyat va zamon haqida fikr yuritir ekan, o‘quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi va she’rlarida ramziy ifodalar, murakkab obrazlardan ustalik bilan foydalangan.

Muhammad Yusufning “Ey, aziz vatan” nomli she’rida ona vatanini shunday ta’rif etadi:

Ko‘zim ochgan kunimdan hamdam, /Hamxonasan men uchun Vatan.

Oftob bitta, oy bitta sen ham, /Yagonasan men uchun Vatan.

[O‘zbekiston, ey aziz Vatan ,2.16]

Bu yerda Vatan inson bilan tug‘ilganidan birga ekanligi, hamdam so‘zi orqali ison va vatan o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlik ramzi ifodalanadi. Ona vatanning bir nafasda, har bir kunda borligi; oftob va oy qanday bitta bo‘lsa vatan ham yagona va yaqinligini bildiradi. Oftob va oy butun borliqning umumiy ne’matlar timsolidir. Keltirilgan she’r oddiy so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lsada, mazmunan chuqur va Vatanimizni ulug‘lashimiz kerakligi haqida yurakka yaqin bitilgan.

Adabiyotshunoslar Muhammad Yusuf ijodini samimiyat va xalqchil ruh bilan bog‘lab baholaydilar. Uning she’rlari turli avlod o‘quvchilari tomonida iliq va ijobiy qarshi olingan. Ayrim tadqiqotchilar uning lirikasini “qalb dag‘allashuviga qarshi ichki kurash” deb atashadi. Shoirning har bir satrida insoniylik, mehr, sadoqat,



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

sogʻinch kabi tuygʻular ustuvor oʻrin egallaydi. Shu sababli ham oʻz zamonasining mashhur shoirlari, yozuvchi yoki sanʼatkorlari Muhammad Yuufning lirikasi haqida koʻplab ijobiy fikrlar bildirishgan.

Ayniqsa, Erkin Vohidov Muhammadni pokiza inson ekanligi, odamlarning esini ogʻdirgan, oʻylatgan, kuldigan, yigʻlatgan, topgan-tutganini, odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli ekanligini oʻzining estaliklarida yozib ketgan. Shu asnoda Halima Xudoyberdiyeva ham shoirga yozgan maktublaridan birida shunday degan edi: “Men agar biz sizdan Vatanni sevishni, yorni sevishni, ardoqlashni, asrashni oʻrgandik desam, bu soʻzimdagi qilcha mubolagʻa yoʻq. Koʻzingiz tushgan boʻlsa, zabardast shoirimiz Qutlibeka Rahimboyevada “Ayt qanday sevin” degan satrlar bor edi. Siz shunday atrofingizdagi borki mavjudotni jondan sevdiniz. Oʻpay desangiz “peshonasi yoʻq qizgʻaldoq” dan tortib, “koʻzi toʻla yosh jayron” gacha...

Qoʻshimcha qilib aytganda, shoir, shoira, adiblardan tashqari ham Muhammad Yusuf ijodini sevib oʻqiydigan sheʼnavislar va ularni kuylaydigan sanʼatkorlar ham ozchilik emas. Ular oʻz fikrlarini ijobiy tarzda bildirishgan, shular misolidan Gʻiyos Boytayevning tahliliy fikrlarini keltirib oʻtish mumkin: “Sakson foiz qoʻshiqlarim muallifi Muhammad Yusuf edi. “Muhabbat yoʻq ekan dunyoda...” degan qoʻshigʻimdan boshlab u kishi bilan hamkorlik qilganmiz. Aka-ukadek qadrdon edik. “Onam yigʻlar...” qoʻshigʻimning musiqasini yaratishda ham, qanday qilib aytishimgacha oʻz ustida turgan edi. Uning yozganlari koʻpincha mening ovozinga mos kelar edi. Sheʼrlari xalqona edi, ohangini oʻzi bilan yozardi.” [4.280]

Xulosa

Muhammad Yusuf ijodi oʻzbek sheʼriyatida xalq ruhiyatini, inson qalbining eng nozik kechinmalarini samimiy va taʼsirchan tarzda aks ettirgani bilan ajralib turadi. Shoir lirikasida ruhiyat inson qalbining ovozigacha, millatning maʼnaviy uygʻonishiga aylangan boʻlib, uning asarlari bugungi kunda ham oʻquvchini hayajonga soladi va ruhlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. “Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat” nashriyoti. T.: 1980. 680B.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

-
2. Muhammad Yusuf. Alyorim qolur. “Ziyo” nashriyoti. T.: 2019. 154B.
 3. Muhammad Yusuf. Xalq bo’l, elim. “O‘zbekiston” nashriyoti. T.: 2019. 196B.
 4. Muhammad Yusuf. Saylanma. “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2019. 285B.
 5. Rahmonqul Orizbekov. O‘zbekiston adabiyot tarixi. “Fan” nashriyoti. T.: 2016. 272B.
 6. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т., Фан, 1979. – Б.9.
 7. Ойбек. Асарлар. Ўн томлик. 9-том. Тадқиқот ва мақолалар. – Т., Фан, 1974. – Б.196.
 8. Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. T.: 2019. 184B
 9. www.yoshlikjurnali.uz O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi. T.: 2024.